Bank risklarni monitoring qilish tizimini takomillashtirish ......................................................................................837
**Hamroyev Sherzod Axtamovich**

O‘zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ko‘p qavatli
“yashil” fermer xo‘jaliklarini tashkil etishning ahamiyati .......................................................................................843
**Turdimuratova Aziza Alisherovna**

Surxondaryo viloyatining mahalliy budjet daromadlarini oshirish yo‘llari va
uni arima modeli asosida prognozlash......................................................................................................................846
**Abdunazarova Shahnoza Norqo‘chqor qizi**

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va
undagi tarkibiy o‘zgarishlarni statistik baholash......................................................................................................856
**Zakirova Umida Maxamadaminovna**

O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati ....................................863
**Pardayev Jamshid Muzaffarovich**

Turizm bozorini rivojlantirishda mehnat bozorining tutgan o‘rni va ahamiyati ......................................................872
**Berdiqulova Iroda Rayimqulovna, Berdikulov Jurabek**

Проблемы расчета определения и планирования прибыли предприятий в условиях модернизации
экономики ....................................................................................................................................................................876
**Алиева С.С.**

# "YASHIL" ENEGRIYA QUVVATLARINI BARPO ETISH IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDA





**Muminova Elnoraxon Abdukarimovna**
FarPI "Iqtisodiyot" kafedrasi mudiri

**Umarova Dilnoza Oybek qizi**
FarPI "Iqtisodiyot" yo'nalishi 78-23 I guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil energiya manbalaridan foydalanishning ahamiyati va zarurati yoritilgan. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda elektr-energiyasini ishlab chiqarish va iste'molchilarni elektr-energiyasi bilan ta'minlash ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Xalqaro energiya agentligi (International Energy Agency – IEA) ning hisobotida aks ettirilgan qayta tiklanadigan energiya manbalarining prognoz ko'rsatkichlari o'rganilgan. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida "yashil" enegriya quvvatlaridan foydalanish zarurligi borasida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil o'sish, iqtisodiy barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, gidronegetika shamol energetika, energiya resurslari, tabiiy resurslar.

Abstract: This article highlights the importance and necessity of using environmentally friendly energy sources. In order to develop a green economy, measures implemented in our country to use renewable energy sources have been studied. The indicators of electricity production and electricity supplies to consumers in Uzbekistan were also analyzed. The forecast indicators of renewable energy sources reflected in the report of the International Energy Agency (IEA) were studied. Conclusions and proposals are made regarding the need to use green energy resources in the sustainable development of the country's economy.

Key words: green economy, green growth, economic stability, renewable energy sources, hydronetics, wind energy, energy resources, natural resources.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность и необходимость использования экологически чистых источников энергии. В целях развития зеленой экономики изучены меры, реализуемые в нашей стране по использованию возобновляемых источников энергии. Также были проанализированы показатели производства электроэнергии и поставок электроэнергии потребителям Узбекистана. Изучены прогнозные показатели возобновляемых источников энергии, отраженные в отчете Международного энергетического агентства (МЭА). Сделаны выводы и предложения относительно необходимости использования зеленых энергетических ресурсов в устойчивом развитии экономики страны.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый рост, экономическая стабильность, возобновляемые источники энергии, гидронетика, ветроэнергетика, энергетические ресурсы, природные ресурсы.

## KIRISH

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, uning tarmoq va sohalarining kengayishi, aholi turmush darajasini ortib borishi iqtisodiy resurslarda yanada oqilona foydalanishni taqazo etadi. Ishlab chiqarish hajmini ortishi, yangi ishlab chiqarish korxonalarining paydo boʻlishi energiya va energiya resurslarini koʻplab sarflanishiga sabab boʻlmoqda. Soha mutaxassislari va olimlarning maʼlumotlariga koʻra, dunyoda aniqlangan mavjud tabiiy yoqilgʻi-energiya resurslari (tabiiy gaz, neft) 60–150-yil ishlatishga yetadi. Shu sababli, koʻplab mamlakatlarda energiya resurslaridan samarali foydalanish masalalariga jiddiy eʼtibor qaratmoqda. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish asosida yashil energiya manbalarini joriy etish, ulardan samrali foydalanish, energiya ishlab chiqarishda muqobil energiya manbalarining ulushini koʻpaytirish, “yashil energetika” siyosatini amalga oshirish bugungi kunning asosiy dolzarb masalalridan hisoblanmoqda. Mamlakatimiz xukumati tomonidan ushbu masala yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi “2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-436-son qarori doirasida 2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga oʻtish va “yashil” oʻsishni taʼminlash boʻyicha harakatlar rejasi ishlab chiqilgan boʻlib, tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tabiiy ofatlar va iqlim oʻzgarishiga nisbatan barqarorligini mustahkamlash, milliy iqtisodiyot, xususan sanoatning “yashil” va kam uglerordli rivojlanishini taʼminlash, innovatsiyalarni joriy etish va samarali “yashil” investitsiyalarni jalb qilish, barqaror va inklyuziv “yashil” urbanizatsiyani rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyotga oʻtish davrida katta taʼsir kuchiga ega boʻlgan aholi qatlamlarini va ularning yashash joylarini qoʻllab-quvvatlash, “Yashil” oʻsish boʻyicha salohiyatni oshirish va inson kapitalini rivojlantirish, “yashil” iqtisodiyotga oʻtish uchun qulay siyosiy muhit yaratish, samarali institutlarni joriy qilish, tashqi va ichki “yashil” moliyalashtirish oqimlarini koʻpaytirish masalalari belgilangan[1].

Oʻzbekistonda “yashil” energiya quvvatlarini barpo etishda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish masalalari yangicha tus olmoqada. Mamlakatimizda quyosh energiya, shamol energiya, gidroenergiya manbalaridan foydalaniladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yu.Shadimetov oʻzining tadqiqotlarida “yashil” energiya xorijiy tajribasi, muammolari va istiqbollarini oʻrgangan. Jumladan, yashil energiyani shakllantirish va ommalashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, Oʻzbekistonda “yashil” iqtisodiyotga oʻtishning dolzarbligi misolida keltirgan. Oʻtgan yillar davomida Oʻzbekistonda muqobil energiya manbalarini rivojlantirishga katta eʼtibor qaratilmoqda, chunki bugungi kunda butun dunyo jamiyati tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammosiga yechim topishga qaratgan [1].

“Yashil” energiya texnologiyalarini qabul qilishda muhim omillarning taʼsirini modellashtirish masalalari Zeng, S. va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oʻz aksini topgan. Uning tadqoqitlarida kabi masalalar oʻrganilgan. Yashil energiya texnologiyalari (GET) ekologik jihatdan xavfsiz va qulay boʻlib, uglerod miqdorini kamaytirish maqsadlariga erishish uchun istiqbolli hissa qoʻshadi. Koʻplab mamalakatlar bugungi kunda yashil energiyaga oʻtish maqsadida koʻplab dasturlar qabul qilmoqdalar [2].

Tabiiy resurslarning barqarorligi soʻnggi adabiyotlar va siyosatchilarning eʼtiborini talab qiladigan global muammoga aylandi. Xorij olimlaridan Chau, K. Y. va boshqalar oʻzlarining tadqiqotlarida yashil energiyani qidirish va isteʼmol qilishning (qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish, qayta tiklanadigan energiya isteʼmoli va yonuvchi qayta tiklanadigan chiqindilar) G7 mamlakatlarida tabiiy resurslarning barqarorligiga (tabiiy resurslar ijarasi) taʼsiri boʻyicha empirik tadqiqotlar olib borganlar 2001 va 2019-yillar oraligʻida Jahon banki koʻrsatkichlaridan (WDI) ikkilamchi maʼlumotlar olindi va konstruktsiyalar oʻrtasidagi munosabatlarni sinab koʻrish uchun momentlar kvantli regressiya usuli (MMQR) qoʻllanildi. Natijalar “yashil” energiyani qidirish va isteʼmol qilish G7 mamlakatlari tabiiy resurslarining barqarorligi bilan ijobiy bogʻliqligini koʻrsatdi. Ushbu tadqiqot, ayniqsa, tegishli organlar uchun tabiiy resurslarning barqarorligi boʻyicha siyosatni shakllantirish va amalga oshirish uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega [3].

Mamlakatimiz olimlari A.I.Qarshibaev, O.Zoxidov, va A.Xamzaevlarning tadqiqotlarida konchilik va ishlab chiqarish korxonalarida ish unumdorligi hamda ishlab chiqarish hajmining ortishi oʻz-oʻzidan elektr energiyasi sarfini ortishiga olib keladi [4]. Bugungi kunda konchilik hamda sanoat korxonalarining elektr energiya isteʼmoli samaradorligini orttirish uchun muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining yangi turlarini ishlab chiqarish obyektlari hududida qoʻllash muammoning oqilona yechimi boʻlib hisoblanadi.

1 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022-yildagi “2030-yilgacha Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-436-son qarori. https://lex.uz/docs/6303230?ONDATE=11.10.2023

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda "yashil" enegriya quvvatlariddan foydalanish masalalarini yoritish, ma'lumotlarni topish, aniqlash va tahlil qilish davomida bir nechta tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Jumladan, O'zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarish qo'rsatkichlari statistik ma'lumotlari asosida qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Mamlakatimizda muqobil energiyalardan foydlanish masalalari o'ranilgan va muhokama qilingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi bosqichida barqaror rivojlantirishni takomillashtirish energetika tarmog'ining raqobatdoshligini oshirishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "yashil" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish asosiy masalalardan sanaladi. 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt/soatga yetkazish, 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash" vazifalari belgilab berilgan. Energetika korxonalarining faoliyatini barqaror rivojlantirishda ularning samaradorligini oshirish yuzasidan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda energetika sanoatini rivojlantirish konsepsiyasiga mos ravishda korxonalar raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirishga nisbatan uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Respublikada iqtisodiyot barqaror o'sishini ta'minlashga va aholining farovonlik darajasini oshirishga, yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talab-ehtiyojni uzluksiz qanoatlantirishga qaratilgan neft-gaz, elektr energetika, ko'mir, kimyo, qurilish industriyasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi amalga oshirilmoqda. 22.08.2019-yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4422-sonli Qarorida yuqoridagi masalalarni amalga oshirish maqsadida "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini yanada oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish" bo'yicha yo'l xaritasi belgilangan[2].




1-diagramma

"2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash konsepsiyasi"ni amalga oshirish jarayonida O'zbekistonning 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan yangi vazifalari va ustuvor yo'nalishlariga muvofiq kengaytirilishi ta'minlanadi. Konsepsiyada 2030 yilgacha erishilishi kerak bo'lgan bir qancha ko'rsatkichlar qayd etilgan, jumladan:

- quvvatni 12,9 GVt dan 29,3 GVt ga oshirish[3];
- elektr energiyasini ishlab chiqarishni 63,6 mlrd. kVt/s.dan 120,8 mlrd. kVt/s.gacha oshirish;

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4422-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-4486125

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qaroriga 2-ilova "Sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash konsepsiyasi"

- tabiiy gaz iste'molini 16,5 milliard kub metrdan 12,1 milliard kub metrgacha kamaytirish;
- elektr energiyasini uzatishda yo'qotishlarni 2,35 foizga va taqsimlashda yo'qotishlarni 6,5 foizga kamaytirish (2019-yilga nisbatan 1,85 barobar kam).

Ushbu rejalarning amalga oshirilishi O'zbekistonda 10-yil ichida energiya iste'moli qariyb ikki baravar oshishi haqidagi prognozlarni hisobga olgan holda mamlakatning energetik havfsizligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, bugungi kunda ishlab chiqarish quvvatlarining asosiy qismini (taxminan 85 foizini) elektro-elektr stansiyalari tashkil etadi, shu munosabat bilan 2030-yilga kelib IES ning 15,6 GVt yangi va modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda energiya ishlab chiqarish quvvatlari yildan yilga ortib bormoqda. 2016-yilda energiya ishlab chiqarish quvvati 59,0 mlrd kVt/soatni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 74,3 mlrd kVt/soatni tashkil etganlishini ko'rishimiz mumkin.

Elektr energiyasini ishlab chiqarishning ko'plab uchullari mavjud bo'lib, Ushbu usullar yordamida elektr energiyasini ishlab chiqarishda qo'llanadigan asosiy texnologiyalardan foydalaniladi. Ushbu energiya ishlab chiqarish usullarini tanlab, ishlab chiqarilayotgan mulkniklar va energiyaning chiqishiga effektivlik bilan ishlab chiqarish mumkin.

Quyidagi diagrammada esa O'zbekistonda iste'molsilarni elektr energiyasi bilan ta'minlash ko'rsatkichining tahlilini ko'rish mumkin.




2-diagramma

Mamlakatimizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yashil energiya manbalaridan foydalanish tarmoqlardagi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi. "Yashil" energiya manbalarining keng joriy qilinishi tarmoqlarda energiya resurslari bilan ta'minlash xizmatlarini ko'rsatishga xarajatlarning kamayishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, shuningdek, barqaror energiyaning mavjudligi, moliyaviy mablag'larning tejalishiga hamda iqlim o'zgarishlari asoratlarini yumshatishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, energiyaga bo'lgan umumiy talabni to'liq qondirish, uzoq va chekka hududlarda uzluksiz energiya ta'minotini amalga oshirish kabi qator masalalarni hal qilish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkonini berganligi uchun, so'nggi yillarda mamlakatimizda umumiy energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi ortib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi qariyb 10 foizni tashkil etmoqda.

1-jadval: O'zbekistonning QTEM salohiyati (Million tonna neft ekvivalenti = Mtne)[4]

| Qayta tiklanadigan energiya manbai | Yalpi potensial | Texnik salohiyat |
|---|---|---|
| Gidroenergetika | 9,2 Mtne | 2 Mtne |
| Shamol energetika | 2,2 Mtne | 0,4 Mtne |
| Quyosh fotoelektroni | 50973 Mtne | 177 Mtne |
| Geotermal energiya | 67000 Mtne | 0,3 Mtne |
| Jami muqobil energiya manbalar | 117984 Mtne | 179,3 Mtne |

4 Uzbekistan Energy Profile. https://iea.blob.core.windows.net/assets/8c1cefe6-4c29-46b0-82fa-c524714e54a5/UzbekistanEnergy-Profile.pdf

Xalqaro energiya agentligi (International Energy Agency – IEA)5ning hisobotiga koʻra 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiyaning global quvvati 510 gigavatt (GVt) ga yetdi. Bu qoʻrsatkich 2022-yilga nisbatan qariyb 50 foizga koʻp ekanligini koʻrishimiz mumkin.

Hisobotda prognoz qilinishiga koʻra:

- 2024-yilda shamol va quyosh energiyasi birgalikda gidroenergetikadan koʻra koʻproq elektr energiyasi ishlab chiqara boshlaydi.
- 2025-yilda barcha qayta tiklanadigan energiya manbalari quvvati koʻmir ishlab chiqarishdan ham oshadi va eng yirik elektr energiyasi manbaiga aylanadi.
- Shamol elektr stansiyalari 2025-yilda atom elektr stansiyalarini, 2026-yilda esa quyosh elektr stansiyalarini ortda qoldiradi.
- 2028-yilda qayta tiklanadigan energiya global elektr energiyasi ishlab chiqarishning 42 foizdan ortigʻini, shamol va quyosh ulushi esa 25 foizini tashkil qiladi.

Mamlakatimizda energetika tizimi barqarorligini ta'minlash uchun yangi quvvatlarga mos tarmoqlarni qurish, elektr saqlash qurilmalarini oʻrnatish, zarur materiallarni ishlab chiqarishni maqsadida Oʻzbekistonda 2024-yilda elektr ishlab chiqarishda "yashil energiya" ulushi 15 foizga yetishi kutilmoqda.

Iqtisodiyotni jadal suratlarda oʻsib borishini ta'minlash maqsadida shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari talabidan kelib chiqqan holda kelgusi uch yilda 8 gigavattli 28 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalarini ishga tushirish, 944 kilometr yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari va 6 ta yirik podstansiyani qurish, jami 2,2 gigavatt boʻlgan 18 ta elektr saqlash quvvatlarini oʻrnatish maqsad qilingan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Energiya resurslariga tobora talab ortib borayotgan bir vaqtda enegriya resurslaridan samarali foydalanish, yashil energiya manbalarini izlaz va ularni iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga joriy etish, energetika tizimining barqarorligini ta'minlash uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbalari ekologik toza yashil energiya manbalari boʻlganligi sababli muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. "yashil" iqtisodiyotni ta'minlash maqsadida atrof- qazib olinadiga yoqilgʻilardan ($CO_2$) foydalanishni kamaytirish, energo reruslarini tejash, iste'molini toʻgʻri tashkil etishda qayta tiklanuvchi enegriya manbalari muhim rol oʻynaydi. QTEMlari birinchidan, havoni ifloslamasdan energiya xizmatlarini taqdim etadi, ikkinchidan, togʻli va chekka hududlarda energetika sohasini barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

- "yashil" enegriya quvvatlarini barpo etish ulardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga asos boʻlib xizmat qiladi. Jumladan:
- "yashil" energiya quvvatlarini barpo etishda tabbiy resurslardan foydalaniladi. Ular quyosh, shamol, suv va boshqa resurslardir.
- "yashil" enegriyadan foydalanishdagi innivatsion texnologiyalar yashil energiya generatsiyasi, batareyalar, energiya iste'molini kuchaytirish usullari energiya iste'moli va iqtisodiy boʻshliqlarning oʻzlashtirishiga yordam beradi.
- "yashil" enegriya resurslari, masalan, quyosh va shamol kabi tabiiy manbalardan foydalanish narxlarning pastligini ta'minlashga yordam beradi. Bu esa energiya narxlari ustida yengilgi koʻrsatkichi boʻlib, energiya iste'molchilar uchun arzon va maqbul narxlarga ega boʻlishi mumkin.
- "yashil" energetika sohasidagi islohotlar va dasturlar, masalan, yashil energiya olishi uchun dastlabki investitsiyalarni qayta ishlab chiqish, energiya olish jarayonlarini iqtisodiy va oʻzlashtirishga yordam berish, energiya iste'molini kuchaytirish va iqtisodiy islohotlarni koʻpaytirishga imkoniyat yaratish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**


1. Шадиметов, Ю. Ш., & Айрапетов, Д. А. (2023). Зеленая" энергетика: опыт зарубежных стран, проблемы и перспективы. "yashil" energetikani amaliyotga tatbiq etish: yutuqlar va muammolar" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to 'plami, 247-253.
2. Zeng, S., Tanveer, A., Fu, X., Gu, Y., & Irfan, M. (2022). Modeling the influence of critical factors on the adoption of green energy technologies. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 168, 112817.)
3. Chau, K. Y., Moslehpour, M., Tu, Y. T., Tai, N. T., Tien, N. H., & Huy, P. Q. (2022). Exploring the impact of green energy and consumption on the sustainability of natural resources: Empirical evidence from G7 countries. Renewable energy, 196, 1241-1249.
4. Қаршибаев, А., Зохидов, О., & Хамзаев, А. (2022). Муқобил энергия манбалари асосида электр энергия истеъмоли самарадорлигини оширишнинг экспериментал тадқиқотлари. Innovatsion texnologiyalar, 1(04), 72-76.


5 https://www.iea.org/reports/renewables-2023/executive-summary

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.